RAQAMLI DAVRDA TIL O‘RGANISH: IMKONIYATLAR VA CHEGARALAR

Toshtemirova Laylo Sherali qizi
E-mail: laylotoshtemirova40@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlangan hayotimizni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaganimizdek, ilf-fan sohasida ham gadjetlar va ularning o‘rni beqiyos. Xorijiy tillarni o‘rganishda esa raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib yubordi: o‘rganuvchilar endi dars xonasi va jadvali bilan cheklanib qolmasdan texnologiyalarning ko‘plab qirralari bilan tanishmoqdalar. Ushbu maqola xorijiy tillarni jumladan ingliz tilini o‘rgatishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari, ularning til ko‘nikmalariga ta’siri hamda qo‘llashdagi cheklovlarni tahlil qiladi.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, til ko‘nikmalari, mustaqil o‘rganish.

Abstract: Just as modern life is unimaginable without technology, the role of gadgets in science is equally invaluable. In foreign language learning, digital technologies have fundamentally transformed the educational process: learners are no longer confined to the classroom and a fixed timetable, and are discovering the many dimensions of technology. This article analyzes the potential of digital technologies in teaching foreign languages, including English, their impact on language skills, and the limitations of their use.

Key words: digital technologies, interactive methods, language skills, independent learning.

Аннотация: Подобно тому как современную жизнь невозможно представить без технологий, в науке неоценима и роль гаджетов. В изучении иностранных языков цифровые технологии коренным образом изменили образовательный процесс: обучающиеся больше не ограничены аудиторией и расписанием занятий и открывают для себя множество возможностей технологий. В статье анализируются возможности цифровых технологий в обучении иностранным языкам, в том числе английскому, их влияние на языковые навыки, а также ограничения их применения.

Ключевые слова: цифровые технологии, интерактивные методы, языковые навыки, самостоятельное обучение.

Shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda raqamli texnologiyalarning ham o‘rni beqiyos. Bu rivojlanish har bir sohada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda ayniqsa ta’lim sohasida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning eng muhim talablaridan biri deb ayta olamiz.

Raqamli texnologiyalar turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasida yaqin kommunikativ aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Dunyodagi istalgan hudud bilan muloqat qilish imkoniyatining kengayishi xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tilining ahamiyatini yanada oshirdi. Ingliz tili nafaqat ilmiy sohada, balki dasturlash biznes va texnologiya kabi ko‘plab yo‘nalishlarda yetakchi til sifatida mustahkam o‘rin egalladi. Raqamli vositalar ingliz tilini o‘rganish jarayonini soddalashtirib, o‘rganuvchilarga elektron lug’atlar, turli mavzularga oid videodarslar, ta’limiy platformalar hamda sun’iy intelekt bilan muloqot qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.[i] Shu paytgacha qo‘llanib kelingan ana’naviy ta’lim tizimi bilan birga zamonaviy texnologiyalarni ham qo’llab dars o‘tish o’quvchi shaxsining ham rivojlanishiga olib keladi. Zamonaviy metodlar va inovatsion texnologiyalar ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishda juda qo‘l kelmoqda. Jumladan, ingliz tilini o‘qitishda ta’lim beruvchilar ingliz tilida turli xil video roliklar, dialoglar, kino va multfilimlardan foydalansa o‘quvchilarning ham til o‘rganish jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi. Albatta shu o‘rinda til o‘rgatuvchilar o‘rganuvchilarning bilim darajasi, yosh chegarasi va madaniy kontestlarni ham inobatga olishi lozim. Chet tillarini o‘rganish xususan ingliz tilini o‘rganish asosan to‘rt

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

aspektdan iborat bo‘lib, o‘qish, yozish, gapirish va tinglab tushunishdan iborat.[ii] Texnologik vositalardan foydalanish esa bu aspektning o‘zlashtirish jarayonini yanada tez va osonlashtiradi. Masalan, tinglab tushunish jarayonini oladigan bo‘lsak zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin va albatta kompyuter, CD player kabilar bu jarayonda qo‘l keladi. Aynan tinglab tushunishda o‘quvchilar tinglash bilan birga yangi so‘zlar va grammatik bog‘lanishlarga e’tibor beradilar. Turli video roliklar, kino, multfilimlar hamda Ai bilan ishlangan turli animatsiyalar o‘rganivchilarning o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu o‘rinda o‘rgatuvchlilar bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin hamda o‘qituvchilik mahorati ham talab etiladi va yuqoridagi materiallarni tanlashda yosh chegarasi va bilim darajasini ham inobatga olish lozim.

Rivojlangan hayotimizni intenetsiz tasavvur qila olmaganimizdek, xorijiy tillarni o‘rganishda ham internet xususan ijtimoiy tarmoqlar ham muhim o‘rin egallaydi. Albatta, chet tillarini o‘rganuvchilaridan internet tarmoqlaridan unumli foydalanish talab etiladi. Ta’lim jarayonida esa zamonaviy texnologiyalardan hamda internet tarmoqlaridan unumli foydalangandagina foyda beradi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar bilan birga turli xil metodlarni ham qo‘llash dars jarayonini samarali va qiziqarli qilishi sir emas. Interaktiv metodlar esa buning yaqqol misoli bo’la oladi. “Interaktiv” so‘zi lotincha “inter” va “actus” so‘zlaridan kelib chiqqan bo’lib, o‘zaro faoliyat degan ma’noni bildiradi Interaktiv metodlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishlariga qaratilgan pedagogik yondashuv. Bu yondashuv an’anaviy o‘qitish usulidan keskin farq qilgan holda o‘quvchilar o‘zlari fikr bildirishadi va ularni faol fikrlashga undaydi hamda o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar esa turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

1. Guruh bo‘lib ishlash.

Interaktiv metodlardan biri guruh bo’lib ishlash bo‘lib, o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib ishlashadi va topshiriqlarni bajarishadi. Bu metod hamkorlikni va jamoaviy fikrlarni rivojlantirish bilan birga diqqatni jamlash va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

2. Diskussiyalar (muhokama).

Bu metodda o‘quvchilar berilgan mavzu bo‘yicha ochiq muhokama olib boradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini asosli ravishda taqdim etadi va boshqa fikrlar bilan solishtiradi.

3. Rolli o‘yinlar.

O‘quvchilar rol o‘ynash orqali biron-bir vaziyatni yoki muammoni hal qilishga harakat qilishadi. Bu metod o’quvchilarni real hayotdagi vaziyatlar va qarorlar haqida o‘ylashga yordam berishi bilan birga ijodkorlik va ijodiy fikrlashning o‘sishiga olib keladi.

4. Yangi g‘oyalar yaratish.

Bu metodda har bir o‘quvchi muayyan masala bo‘yicha o‘zlarining g‘oyalarini taklif qilishadi, bu esa ularning darsda faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Bu metodda hech bir fikr xato hisoblanmaydi va har bir fikr tahlil va muhokama qilinadi. O‘z navbatida o‘quvchilarning xatolarini to‘g‘irlashiga va yangi g‘oyalar ustida ishlashga turtki bo‘ladi.

5. Vaqtni boshqarish.

O‘quvchilar berilgan vaqt oralig‘ida topshiriqlarni bajarishadi va bu metod ularning rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu o‘rinda ular o‘z vaqtlarini shaxsiy va akademik vazifalarni to‘g‘ri rejalashtirishni rivojlantirishadi. Bu metodning yana bir afzal tomonlaridan biri stressni kamaytiradi, kechikishlar va xatoliklarni oldini oladi.

6. Muammoni yechish.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘quvchilarga turli xil masalalar va vaziyatlar beriladi va bu masalalarni yechishda o‘zlarining yechim va takliflarini berishadi. Bu metod tahliliy fikrlash va o‘z fikrini to’liq ifodalash ko‘nikmalini rivojlantiradi. Shu bilan birga o‘quvchilar hayotiy vaziyatlardan ham to‘g‘ri chiqa olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni faol ishtirok etishlarini ta’minlash va ularni dars jarayonlariga qiziqtirish hamda bilimlarini amaliyotda keng qo‘llash imkoniyatini yaratish. Shuningdek fikirlash qobiliyati va kreativligini oshirish hamdir. Bu metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi bilan ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga ham xizmat ko‘rsatadi. Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining yutuq va kamchiliklarini ko‘proq sezadilar, bu esa o‘z navbatida ularning o‘qishga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim berish jarayonida metodlar va turlicha yondashuvlar muhim o‘rin tutadi va mana shu qismda zamonaviy texnologiyalar hamda interaktiv metodlardan foydalananish qo‘l keladi. Qaysi metodlarni tanlashni esa o‘qitivchining o‘zi belgilaydi, bu belgilash turli omillarga ta’sir ko‘rsatadi. Bular, o‘quvchilarning yoshi, salohiyati, o‘quvchilarning mativatsiya va qiziqishlari, dars strukturasi, texnologik vositalarning mavjudligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va guruh yoki sinf dinamikasiga bog‘liq. Barchasini inobatga olgan holda dars o‘tish esa har ikkala tomomga ham foydali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharofova N, Ergashev M. “Raqamli vositalarning ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati”. ‘Tilshunoslikda lingvodidaktika, linguafalsafa hamda tarjimashunoslik jarayonlashuvi” mavzusidagi xalqarao ilmiy-amaliy anjuman.
2. Ismatullayeva D.A. “Journal of inovations and social sciences”. 2022
3. Jalolov. J.J. “Ingliz tili metodikasi” 2001
4. Fayzullayeva T.M. “Interaktiv metodlar orqali tillarni o‘qitish”. 2006

[i] Sharofova N, Ergashev M. “Raqamli vositalarning ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati”. ‘Tilshunoslikda lingvodidaktika,linguafalsafa hamda tarjimashunoslik jarayonlashuvi” mavzusidagi xalqarao ilmiy-amaliy Anjuman.

[ii] Ismatullayeva D.A. “Journal of inovations and social sciences”. 2022

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.